



TASAVVUFİY QARASHLARNING SAN'ATDA AKS ETISHI

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqola tasavvufiy qarashlarning san'atda ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlari tog'risida bo'lib, o'zbek san'atida tasavvuf mavzusining me'morchilikda, haykaltaroshlikda, badiiy adabiyotda, rassomchilikda va ko'plab san'at namunalarida aks etishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf mavzusi, san'at, adabiyot, arxitektura, estetika.

ОТРАЖЕНИЕ МИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ИСКУССТВЕ

Аннотация: В статье речь идет об особенностях выражения мистических взглядов в искусстве, анализируется отражение темы мистицизма в узбекском искусстве в архитектуре, скульптуре, художественной литературе, живописи и многих образцах искусства.

Ключевые слова: Предмет суфизма, искусства, литературы, архитектуры, эстетики.

REFLECTION OF MYSTICAL VIEWS IN ART

Abstract: The article deals with the features of the expression of mystical views in art, analyzes the reflection of the theme of mysticism in Uzbek art in architecture, sculpture, fiction, painting and many examples of art.

Keywords: The subject of Sufism, art, literature, architecture, aesthetics.

Tasavvuf mavzusining zamonaviy o'zbek san'atida namoyon bo'lishi - bunda ijodkor tomoshabinni, o'quvchini ota-bobolarimizning yashash tarzi, xarakteri, mentaliteti, o'y-hayollari, orzu umidlari, hayotiy tajribalari bilan tanishtirishga, ularning hayot falsafasini ichki botiniy jihatlarini badiiy usulda tasvirlashga harakat qiladi, olam, borliq, inson to'g'risidagi go'zal g'oyalarni tushuntirib beradi. O'zbek san'atidan asosiy me'morchilik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, rassomchilik va ko'plab san'at namunalarida tasavvufiy g'oyalarni singdirilgan.

San'at, badiiy asar va ijodiy faoliyat jarayoni nochiziqli jarayon bo'lib, bu holatda muallifning bilimi, g'oyalari, tasavvuri, badiiy imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. San'at asarining obyekti olam, tabiat, jamiyatdagi narsa va hodisalar, inson hayoti va ichki ruhiy kechinmalari bo'lishi mumkin. Ijodkorning ijodiy faoliyati jarayonida san'at asarining obyekti badiiylik, majoziylik nuqtayi nazaridan tasvirlanadi, ifoda etiladi. Mazkur ifoda va tasvirlash jarayoni aynan amalga oshirilmasligi bilan nochiziqli xarakterga ega. San'at, badiiy asar va ijodiy faoliyat jarayoni nochiziqli jarayon sifatida, kutilmagan mavzularni obyekt darajasiga olib chiqadi.



Hozirgi kunda “tasavvuf mavzusi” ilm-fanda, badiiy ijodiyotda ma’naviy meros, milliy qadriyat sifatida takomillashmoqda, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O’z navbatida o’zbek san’ati va madaniyatida ham chuqur o’rganilmoqda. “Tasavvuf mavzusi” deganda nima nazarda tutilmoqda? Ma’lumki, san’atning turlari, yo’nalishlari judayam ko’p, ammo har bir san’at turi yoki shaklining alohida predmeti, usullari mavjud. Masalan, tasavvuf namoyandalarining asarlari, ularning qarashlari badiiy adabiyotda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Masalan, Ibrohim Haqqul “Tasavvuf va she’riyat”, Hamidjon Islomiy “Tasavvuf allomalari” nomli asarida tasavvufning badiiy asoslarini tahlil qiladi.

Tasavvufiy mazmunda yaratilgan san’at asarlari yoki badiiy asarlarni yaratishda ijodkorning tasavvufiy tafakkur tarzi, islom dini bo'yicha savodi, bilimi, diniy qarashlari muhim ahamiyatga ega, ya’ni madrasa, masjidlar, saroylar me’morchiligidagi islomiy, tasavvufiy bilim va qarashlar asosiy omil bo’lib xizmat qiladi.

Asosan milliy me’morchilik san’atida ko’k gumbaz, minora, arab yozuvidagi bitiklar asosiy ramzlar hisoblanadi. Masalan, “Minora” arabcha “minoratun” so’zidan olingan bo’lib, mayoq degan ma’noni bildiradi. Islom madaniyatida minora o’ziga xos ma’noga ega bo’lib, u Allohnинг yagonaligi - yolg’izligi ramzi bo’lish bilan birga uning baland va viqorli turishi Allohnинг ulug’ligi va hamma narsani bir ko’zda ko’rib turishi timsolidir. Bundan tashqari, “minoralar hamma narsaga bab-barobar qarash bilan birga, har qanday nokasliklardan o’zini baland qo’ymoq, g’urur va faxr ramzi hamdir. Shu ma’noda, diniy qadriyatlar, ular bilan bog’liq me’moriyobidalar ajdodlarimizning ma’naviy-ruhiy olamini, turmush-tarzi, hayot ma’nosini, yashashdan maqsadi va intilishlarini ramziy ifodalash bilan qimmatli va bugungi milliy tiklanish jarayonida ulardan oqilona foydalanish ahamiyatga molik”.[1.148]

“Estetik tuyg’u, go’zallik haqidagi odamlardagi tushuncha, tasavvur bilan ularni o’ragan muhit o’rtasida to’g’ridan-to’g’ri munosabat bo’lmashligi mumkin, lekin badiiy go’zallik ularni hayotga boshqacha qarash va boshqacha e’tibor yuritish salohiyatni kuchaytiradi, insondagi yangi-yangi ma’naviy his-hayajon to’lqinlarini kuchaytiradi”.[2.21] Badiiy asardagi estetik kechinmalar, go’zallikni his qilish orqaligina asarning tub mohiyatini anglash mumkin bo’ladi. Shundagina asarda berilgan estetik mazmun ma’naviy ehtiyoj sifatida odamlarda go’zal odatlar, ko’nikmalar va faoliyatni keltirib chiqaradi.

Tasavvufiy g’oya va nazariyalar juda ko’plab san’at turlarida o’zini namoyon qiladi. Masalan, Rassom B.Maxkamov o’z kartinalarida tasavvufiy an’ana va madaniyatlarni tasvirlagan. Mazkur badiiy asarlarda ajdodlarimizning o’ziga xos hayot falsafasi aks etgan, ijodkorning maqsadi tasavvufona hayot tarzini ifodalash orqali milliy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni anglash, ularni avaylab asrashga da’vat etishdir.

Tasavvuf mavzusida yaratilgan san’at asarlari, tarixiy nuqtayi nazardan, qalb go’zalligi va nozikligi, qalb va tuyg’ularning teranligi, ilhomlanish madaniyatlarning paydo bo’lishiga asos bo’lib xizmat qilgan. Zamonaviy nuqtayi nazardan, zamonaviy san’at asarlariда tasavvuf mavzusining obyekt darajasiga olib chiqilishi albatta bu o’zlikni anglash, milliy qadriyatlarni his qilish, tarixda ajdodlarimiz qo’lga kiritgan yuksak madaniy va ma’naviy yutuqlaridan bahramand bo’lish, yana bir bor tarix sahifalariga muhrlashdir.

Me’morchilik, arxitektura, musiqa, adabiyot, kino, teatr kabi ko’plab san’at turlarida badiiy asarlarni yaratishda tasavvufiy merosga alohida e’tibor qaratiladi.



Tasavvuf ta'limotining go'zal g'oyalari - tinchliksevarlik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, nafsn iyiish va shu kabi ezgu g'oyalaring san'at asarlarida aks etishi, insonning ma'naviyatini shakllanishiga, milliy o'zligini anglashiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. "Ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir". [3.267]

Ma'naviy jarayon sifatida, tasavvufiy san'at asarlari insonga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashga, yoshlarning ongu-tafakkurini milliy ma'naviy merosimiz g'oya va nazariyalari bilan boyitishga xizmat qiladi. Tarixiy o'tmishimiz, ajdodlarimiz pand-nasihatlari, tajribalarining amaliy ahamiyatini anglashga da'vat etadi.

Tasavvufiy g'oya va nazariyalarning san'atda namoyon bo'lishi, birinchidan, san'atning ham taraqqiyotiga, halqchillik, insonparvarlik, jozibadorlik xususiyatlariga, o'ziga xos san'at turlarining paydo bo'lishiga keng ta'sir ko'rsatgan, tasavvuf san'ati, islam san'ati kabi tushunchalar yuzaga kelgan, ikkinchidan, tasavvuf ilmining she'riyatda aks etishi, tasavvuf adabiyotining paydo bo'lishiga olib kelgan, chunki, asarlar she'riy shaklda bo'lib, ko'pincha Allohga duo va iltijolardan iborat bo'lgan, Muxammad payg'ambarga bo'lgan sog'inch va muxabbat izhori bilan to'ldirilgan ijod namunalari bo'lgan, uchinchidan, badiiy asarlarda, tasavvufiy g'oya va nazariyalarning san'at asarlarida aks etishi insonga ma'naviy ozuqa beradi, ajdodlarimizning ulkan ma'naviy meroslari kuchli estetik taassurot qoldiradi.

Voqelik haqidagi san'atkor hukmi o'quvchi va tomoshabin xulosasi bilan teng bo'lmasligi mumkin. Lekin eng qizig'i shundaki, san'atkor o'quvchi va tomoshabinga erkin fikr yuritish va erkin tuyg'ularga burkanish imkoniyatini yaratadi.

Tasavvuf va san'atning o'zaro munosabatlariga Shayx Jo'shon alohida e'tibor beradi, san'atni inson axloqiy hayotini boyituvchi, uni yuksak axloqiylikka da'vat etuvchi vosita sifatida talqin qiladi; san'atkor qalbida axloqiylik bilan hayajon uyg'unlikda yashashini ta'kidlaydi. San'atning asosida hayajon yotishini aytib, ko'ngli hayajondan yiroq insonning go'zallikni his etishi, topa bilishi va tasvirlashi mumkin emas, deydi u. Shu jihatdan tasavvuf san'at bilan o'xshash. Lekin tasavvufdagagi hayajon san'atdagidan ko'ra kuchliroq, sururiyoq ekanini aytadi: "Tasavvufdagagi his-hayajon shu qadar kuchli va hayotbaxshki, bu tuyg'u insonni havoda uchiradi, oyoqlarini yerga bostirmaydi." [4.79] Shuningdek, Jo'shon o'tmish san'atkorlari va olimlarining ko'pchiligi tasavvuf ahlidan bo'lganini, tasavvuf ahli adabiyot hamda musiqa, me'morchilik va boshqa san'at sohalariga homiylik qilganini misollar bilan isbotlab beradi.

Adabiyot va adabiyotshunoslikda tasavvuf mavzusi bo'yicha nimalar qilingan? Tasavvuf adabiyotga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Oddiy so'z ta'sir o'tkaza olmagan joyda "Tasavvuf" inson qalbining tub-tubiga yo'naltirilgan satrlari bilan yuksak tuyg'ularning nozik torlariga tegib, butun mamlakat va xalqlar adabiyotini sezilarli darajada boyitdi. Tafakkurni kengayishiga, ichki his-tuyg'ularning chuqurlashishi va yanada kuchayishiga hissa qo'shayotgan, qalbga nafosat bag'ishlagan adabiyotda tasavvuf mavzusi alohida o'rinni egalladi.



Tasavvufiy g'oya va nazariyalarning she'riyatda ilgari surilishi xalqning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini mustahkamlashda samarali vosita bo'lib, islom dinining madaniy qadriyatlarini yoyilishiga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu asarlarda tinglovchi va mutolaa qiluvchilar azob chekayotgan qalblarga taskin, ma'naviy ozuqa topdilar, ular tufayli jamiyatda sevgi va rahm-shafqat, tinchlik va totuvlik mustahkamlandi. Odamlar tasavvuf adabiyotining o'chmas taassurotlari ostida bo'lib, gunoh va noloyiq ishlardan qochishga harakat qildilar, xalol va o'z mehnati evaziga kun kechirishga, boylikka ruju qo'ymaslikka intildilar. Tasavvuf mavzusida ijod qiluvchi shoirlar qatlami shakllandi.

Yunus Emro (1240-1320) XIII asrda yashagan turk shoiri va sharq xalqlarining eng suykli shoirlaridan biriga aylangan. Qur'on va hadis ilmlarini chuqur o'rgangan, o'z davrining yetuk mutasavvuf olimi bo'lgan, falsafiy dunyoqarashi bilan o'sha davrning yirik olimi sifatida nom qozongan, XIII asrda Xurosandan Anadoluga borgan. U o'z she'rlarida Allah va Rasuliga (s.a.v) sevgi haqida kuylaydi. "Sevaman, sevilaman" deb yozgan shoir insonlarni, yaratiliqlarni sevish orqali Yaratgan sevgisiga erishish haqida yozdi.

Uning asarlari:

1. Risolatun-Nushiyya (O'git risolasi) - masnaviy shaklida yozilgan axloqiy, diniy asar.

2. Devon. Yunus Emro devonining bir qancha qo'lyozma nusxalari mavjud.

Yunus Emro she'rlari mo'g'ul-tatarlar bosqinidan keyin yetti asr davomida xalqning tasalli va ilhom manbai bo'lib kelgan. She'rlar bosqinchilarga qarshi kurashni ilhomlantirdi, madaniy qadriyatlarni ulug'ladi, keng ommaning diniy ruhini yuksaltirdi. Muhtaram Xoja Ahmad Yassaviy, Hoji Bayram Valiy, Ashrafo'g'li Rumiy va Aziz Mahmud Xuday she'rlarini taqdim etdilar.

Tasavvuf adabiyotining barcha ko'rinishlarida doimo iymon sarxush lahzalari bo'lgan, bu davrda she'r ilhom chalinib lablardan tusha boshlagan. She'rlar tinglovchilarni ilohiy olamga yetaklab, diniy tuyg'ularga yuksak hissiy bo'yoq berib, ibodatni yanada jozibali va shirinroq qilgan.

Tasavvuf adabiyoti o'zining tasavvufiy mazmuni bilan xalq adabiyotiga o'ziga xos go'zallik va ifoda boyligini bergan. She'riyat she'rlarning sehrli noaniqligi bilan ajralib turardi. Tasavvuf she'riyati qofiya va o'lchar orqali estetik ta'sir ko'rsatib, tinglovchilarning estetik saviyasini inobatga olgan holda tanlanganligi bilan ajralib turardi. Tasavvuf allomalarining ma'naviy kechinmalari va tushunchalari xalq og'zaki ijodini ancha boyitgan. Tasavvuf mavzusidagi she'rlar odamlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatgan, xattoki, "adabiyotimizning kelib chiqishi va rivojlanishi tasavvuf tufaylidir" (Nihod Sami Baharli) deyishgan.

San'at – ma'lum bir shaklda ifodalangan shaxsning ma'naviy chuqurligi va his-tuyg'ularining badiiy timsolidir. Asar qanday san'at bo'lmasin u hamisha inson qalbi aksi va tasavvurining mevasidir. San'atning nozikligi va go'zalligi doimo qalbning chuqurligi bilan bir xil. Tasavvuf mavzusining san'atda namoyon bo'lishi, bu birinchidan, tasavvufning keng yoyilishiga, ikkinchidan, san'atning ham taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan. Tasavvufning san'at taraqqiyotidagi rolini to'liq ta'riflab bo'lmaydi, biz tadqiqot ishimizda ayrimlarini tahlil qildik.



Musiqaning inkor etib bo'lmaydigan sehrli ta'siridan tasavvuf izdoshlari islom qonunlari va axloqi doirasida hamisha yaxshilik uchun foydalanganlar. Tasavvuf musiqaga alohida yo'naliш berib, uni vasvasa emas, balki insoniyatning ma'naviy ozuqasiga aylantirgan. Ushbu maqsadga mos keladigan musiqiy asarlar qabul qilindi, mos kelmaydiganlari esa rad etildi. Darhaqiqat, musiqaga yaxshilikka xizmat qilish vazifasi yuklanganda, u zo'r ovoz jo'rligi yoki qasida (odasi), g'azal (lirk misra), ruboiy (to'rtlik) sifatida ham ma'naviyatda muhim o'rin tutgan. Insonni ibodat va toatga undaydigan, Allohnini eslatuvchi, haromlardan saqlanishga yordam beruvchi, qalbga pokiza tuyg'ular, ilhom bag'ishlovchi musiqiy asarlar, albatta, ma'lum bir vaqtida, ma'lum bir joyda tinglanishi kerak.

Arxitekturada tasavvuf shubhasiz, arxitektura san'atning eng muhim sohalaridan biridir. Arxitektura – yurak ilhomidan tug'ilgan g'oyani aniq geometrik va matematik hisob-kitoblar orqali go'zal asarlar yaratuvchi san'atdir. Buni aytishingiz mumkin: arxitektura qurilish materiallari orqali ma'naviy tajribalarning ifodasidir.

Tasavvuf mavzusi islom arxitekturasida ham mavjud bo'lib, masjid va madrasalar peshtoqlarida, tasavvuf timsollari mavjud. "Kubba" deb ataladigan gumbaz "Vohid" (Yagona Olloh) timsoli hisoblanadi. Tasavvufiy mazmunda qurilgan katta kachik binolar asosan, har qanday dabdaba va ulug'vorlikdan uzoqdir, ular bu dunyoning zaifligi tuyg'usini uyg'otadi. Ular oddiy ko'rinishda bo'lib, tasavvuf qonunlari va tushunchalari doirasida qurilgan. Bu asarlar ma'naviyat bilan sug'orilgan bo'lib, u materialda namoyon bo'ladi.

Spiral motif meditatsion funktsiyalarga ega bo'lib, chuqur tasavvufiy ma'noga ega. Spiral motiv doimiy harakatning ramzi hisoblanib, haqiqatni yoki ilohiylikni anglash istagi sifatida qaraladi, uning naqsh bilan tugashi Allohnинг go'zalligi bilan bog'liqdir. Spiral naqshning proektsiyasi sufylarning aylanmasiga o'xshaydi, uning maqsadi trans holatiga erishishdir. Konusning o'rtasiga yoki tepasiga spiral bo'lgan bu harakat (spiralning fazoviy tuzilishining bir varianti) miniatyrada, gumbazli masjidlar arxitekturasida, axloqiy kamolot yo'lida ma'naviy yuksalish sifatida ifodalangan.

Manmanlik va manmanlikdan voz kechgan holda, insonning ma'naviy go'zalligini san'at va estetik qadriyatlarni yaratish orqali ifodalash mutlaqo normal harakatdir. Binobarin, san'atning barcha turlari islom qonunlariga muvofiq hamisha tasavvuf muassasalari homiyligida bo'lgan. Tasavvuf bilan bog'liq tasviriy san'at ma'naviy olamining tub-tubiga daxldor, o'z asarlarida ma'naviy qadriyatlarni ulug'lab, yuksak estetika, ma'no teranligiga erishgan. Qalb hayotisiz va ruhiy tuyg'ularning nozik tomonlarini his qilmasdan, faqat aql bilan boqiy haqiqatlar olamiga yetib bo'lmaydi.

Fes muqaddas musiqa festivali dunyodagi eng muhim musiqiy tadbirlardan biridir. Festivalning eng qiziqarli tadbirlaridan biri so'fiylik kechalari - konsertlar bo'lib, unda turli so'fiy jamoalari vakillari musulmon ashulalari haqida o'z tasavvurlarini taqdim etadilar. [5.]

Tasavvufiy san'at asarining asosiy xususiyati shundaki, u kamida ikkita maqsadi: – tasavvufiy tajribani ifodalash va tasavvufiy tajribani keng yoyishdan iborat bo'ladi. Tasavvuf she'riyati va musiqasidagi ramziy uslublar:

- 1) ishq, muhabbat va mahbub,
- 2) oyna, go'zallik, va go'zallikning ko'zgudagi aksi,



3) ijodkor, uning ijodi va ishlatgan materialning triadasi sifatida ifodalanadi. Ba'zan Alloh dunyoning har bir burchagida tasvirlangan bo'lsa, tasavvuf shoirining sevgisi Allohg'a qaratilgan bo'lsa-da, uning tili, hissiyotlari tajribalarni plastik, dunyoviy his-tuyg'ularga boy bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Турабова Ш. Исломий обидалар шарқ халқлари меъморчилигининг ноёб намунаси сифатида. - Тошкент. “Марказий Осиё илмий меросининг инсоният цивилизациясида тутган ўрни” мавзуидаги Республика илмий-назарий конференция. 2016-йил 3-май. 1-китоб. -148 б.
2. Ўроқова О.Ж. Чўлпон ижодининг бадиий-эстетик моҳияти. -Тошкент: Наврӯз, 2016. - Б.21.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: O'zbekiston, 2021. - 267 б.
4. Жўшан М.А. Тасаввуф ва нафс тарбияси. Н.Ҳасан таржимаси. Т., Чўлпон, 1998, 79-б.
5. Лукоянова Л.А. Традиции суфиев в современном исламском искусстве // Современные научные исследования и инновации. 2011. №2 [Электронный ресурс]. URL: <https://web.snauka.ru/issues/2011/06/943>